

## INGLIZ TILINI O'RGANISHD FONETIK QOIDALARINING O'RNI

**Ravshanova Shaxzoda Mashrab qizi***Sam DChTI talabasi***Asadova Chexrangiz Salimovna***Sam DChTI o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada fonetikaning tilshunoslikdagi o'rni, til o'rganishdagi ahamiyati (ingliz tili misolida), diftonflar, fonetik o'zgarishlar, fonetikaning turlari, rivojlanish va paydo bo'lish sabablari, dastlabki fonetikaning grammatikada shakllanishi va bu haqida nazariyalar ishlab chiqqan olimlar haqida ma'lumot berilgan.

**Kalit so'zlar:** Diftonglar, bo'g'in, urg'u, unli va undosh tovushlar, fonetika, Avgust Shleyxel, eksperimental o'rganish, absolyut nazariyasi, Gegel, cho'ziq unli, qisqa unli, sanskrit, qiyosiy fonetika.

Hozirgi kunda ingliz tiliga bo'lgan ishtiyoq kundan kunga ortib bormoqda. Bu tilda o'rganishda esa, fonetik qoidalarining o'rni beqiyosdir. Dastlab biz unli tovushlarning muhimligiga e'tibor qaratib o'tadigan bo'lsak, ularning o'rni juda katta. Tovushning hosil bo'lishida ketadigan vaqtning miqdoriga ko'ra unli tovushlar ikki turga bo'linadi:

1. Cho'ziq unli
2. Qisqa unli

Cho'ziq unli davomli (cho'ziq) talaffuz etiladigan unli tovushlardir. Bunday tovushlar ko'pincha ma'no farqlash uchun xizmat qiladi. bu hodisa turkiy tillarning ba'zilarida uchraydi[2].

Fonetikadagi yana bir e'tibor qaratadigan jihat bu – diftonglardir. Diftong (yun. – qo'sh tovushli, qo'sh ovovzli) – bir bo'g'in hosil qiluvchi ikki fonetik unsurdan tashkil topgan murakkab unli; shu jihati bilan farq qiladi, unsurlarning biri bevosita bo'g'in hisil qiladi, ikkinchisi esa unga ergashib keladi va bo'g'in hosil qiluvchi hisoblanmaydi. Pasayuvchi (birinchi unli bo'g'in hosil qiladi) va ko'tariluvchi (ikkinchi unli bo'g'in hosil qiladi). Diftonglar o'zaro farqlanadi. Diftonglar ko'pincha nemis, ingliz ispan, fransuz, xitoy kabi tillarda uchraydi[3].

Zamon bilan bir qatorda til ham rivojlanib borayotgan ekan, ulaening bo'limlarini ham o'z o'rni mavjud. Fonetika barcha tillarning o'ziga xos o'rnidir. Fonetikaga chuqurroq nazar tashlaydigan bo'lsak, ko'p narsani anflab yetamiz.

Fonetika tilning boshqa sohalari bilan bog'liq, chunki tovush, urg'u va ohangsiz bo'g'in, so'z, so'z birikmasu hosil bo'lmaydi. Shu tufayli fonetika leksika, morfologiya, sintaksis va stilistika bilan bog'liq til bosqichi deb qaraladi o'zbek tili fonetikasi ham chuqur o'rganilmoqda. O'zbek tilining tasviriy fonetikasini tadqiq qilishda V. V. Reshetov, A. G'ulomovlar; o'zbek tili fonetikasini 60- yillar oxirida eksperimental o'rganishda A. Mahmudov va S. Otamirzayevalar; o'zbek tilining tarixiy o'rganishda Abdullayev, G' .

Abdurahmonov, A. Rustamov, Q. Mahmudov, H. Nematov, E. Umarovlarning xizmatlari katta [4].

Tilning paydo bo'lishi va uning taraqqiyot yo'lini o'rganish tilning qanday hodisa ekanligini tasaavvur qilish imkonini beradi.

Tilshunoslik tarixida qadimdan qarama-qarshi ikki fikr o'rtasida kurash boradi. Quyida shular to'g'risida fikr yuritamiz.

Shulardan biri XIX Germaniyada Avgust Shleyxel tomonidan asos solingan tilning tabiiy yoki ijtimoiyligi haqidagi fikrdir. Shleyxel u yiki bu hodisaning tabiiy yoki ijtimoiyligini xalqning irodasi shu hodisaga ta'sir ko'rsata olish-olmasligi nuqtai nazaridan aniqlaydi. Uning fikricha, tilning rivojlanishi xalq istagiga bog'liq bo'lmaydi, u o'z qonunlari asosida rivojlanadi, demak, til tabiiy hodisalar qatoridan o'rin olishi kerak. Bundan til dunyodagi boshqa tabiiy hodisalar singari o'z-o'zidan paydo bo'ladi, rivojlanadi, kezi kelganda yo'q bo'ladi, o'ladi degan ma'no kelib chiqadi. Til kishining tabiiy xususiyatlari (masalan, yurish, nafas olish, ovqatlanish, va boshqalar) ga xos narsalardir.

Olma daraxti ma'lum vaqt o'tishi bilan olma hosili berganidek, odam bolasi ma'lum yoshga yetganda gapira boshlashi kerak. Bunday fikrni ilgaeri surgan olimlarda ba'zi "dalillar" ham bor edi, ular lotin sanskrit (qadimgi hind tili) kabi o'lik tillarni misol qilib ko'rsatishadi. Mazkur fikr tarafdorlari o'z nazariyalarini asoslashda nemis faylasuf olimi Gegelning absolyut g'oyasidan foydalanadilar. Tilning paydo bo'lishi va rivojlanishini ana shu absolyut g'oyaning harakati deb bilishidir[1].

Fonetika barcha tillar uchun umumiy bo'lgan fonetik xususiyatlarni (nutq tovushlarining hosil bo'lishi, ularning universal tasnifi, tovushlarning birikish qonuniyatlari, yondosh tovushlardan birining ikkinchisiga ta'siri va boshqalarni) o'rganadi. Umumiy fonetika xususi fonetika materiallariga asoslanadi. Tarixiy fonetika tilning fonetik tizimini tarixiy taraqqiyotida, rivojlanish jarayonida o'rganadi. Tasviriy fonetika esa muayyan til fonetik tizimining hozirgi holatini o'rganadi. Qiyosiy fonetika ikki til fonetikasini, qarindosh tillar tovush tizimini bir-biriga qiyoslab o'rganadi. Ekspremental fonetika nutq tovushlarini, fonetik hodisalarni ma'lum texnik vositalar yordamida o'rganadi.

Nutq tovushlarining hosil bo'lish mexanizmini o'rganish XVII – asrdan boshlangan bo'lib, bu hol ko'r soqovlarni o'qitish ehtiyojidan kelib chiqqan (ispaniyalik X. P. Bonet, anglaylik J. Uilkins, niderlandiyalik I. Amman sarlari). Tilning tovush tomonini har jihatdan lingvistik nuqtai nazardan o'rganish birinchi marta nemis olimi E. Liversning "Tovush fiziologiyalari asoslari" asarida kuzatiladi. Rassiyada umumiy fonetikaning rivojiga I. A. Bogoroditskiy va L. V. Shcherbalar o'z asarlari bilan muhim hissa qo'shadilar [4].

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Asadova, C., Ulug'bekova, S., & Shamsiyeva, K. (2024, April). INGILIZ TILIDA LUG'AT YODLASHNING SAMARALI USULLARI. In *Conference Proceedings: Fostering Your Research Spirit* (pp. 152-155).

2. Salimovna, A. C. (2023). TEACHING CHILDREN HOW TO SET ADEQUATE GOALS AND STRATEGIES. *FINLAND" MODERN SCIENTIFIC RESEARCH: TOPICAL ISSUES, ACHIEVEMENTS AND INNOVATIONS"*, 14(1).

3. Makhmudova, J., & Asadova, C. (2024, April). THE GOALS AND OBJECTIVES OF USING GAME ACTIVITIES IN EDUCATION. In *Conference Proceedings: Fostering Your Research Spirit* (pp. 194-197).

4. Асадова, Ч. (2019). АБСТРАКТНЫЕ СУЩЕСТВИТЕЛЬНЫЕ В АНГЛИЙСКОМ И РУССКОМ ЯЗЫКАХ. *Актуальные научные исследования в современном мире*, (1-3), 82-84.

5. Асадова, Ч. (2022). Хорижий tillarni o‘rganishda yosh davriga xos xususiyatlar. *Анализ актуальных проблем, инноваций, традиций, решений и художественной литературы в преподавании иностранных языков*, 1(01), 225-226.

6. М. Т. Irisqulov “Tilshunoslikka kirish” Toshkent 2009. 263bet.

7. [https://uz.wikipedia.org/wiki/Unli\\_tovushlar](https://uz.wikipedia.org/wiki/Unli_tovushlar).

8. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Diftong>.

9. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Fonetika>.